



Uluslararası Türk Akademisi

**I. ULUSLARARASI
TÜRKBİLİM ÖĞRENCİ
KURULTAYI
BİLDİRİLER KİTABI**

Nur-Sultan
2021

UDK 001
BBK 72
U 17

Proje Müdürü:
Prof.Dr. Darhan Kıdırali
Uluslararası Türk Akademisi Başkanı

U 17 **Uluslararası Türkbilim Öğrenci Kurultayı Bildiriler Kitabı.**
Nur-Sultan, 2021, – 696 s.

ISBN 978-601-7999-54-4

“Uluslararası Türkbilim Öğrenci Kurultayı” fikri ilk olarak Azerbaycan’da yaşayan Türkoloji tutkunu birkaç gencin düşüncesiyle ortaya çıksa da kısa bir süre sonra Türk dünyasının farklı bölgelerinde yaşayan diğer öğrenciler ve akademisyenler, Kurultay çalışmaları kapsamında bir araya gelerek tek yürek oldu.

Düzenleme Kurulu’nda; Azerbaycan, Türkiye, Özbekistan, Kazakistan, Kırgızistan ve Türkmenistan’dan birçok genç Türkolog yer aldı. Türkoloji alanında görev yapan bilim insanları, genç Türkologlara rehberlik etti. Türk dünyasındaki gençler tarafından 4-5 Eylül 2020’de düzenlenen ve sanal ortamda gerçekleştirilen I. Uluslararası Türkbilim Öğrenci Kurultayı’nın “Bildiri Kitabı”nda, iki gün süren ve toplam 9 oturumda Azerbaycan, Türkiye, Özbek, Kazak, Kırgız, Türkmen, Gagauz, Uygur, Karakalpak ve Balkan Türkçeleriyle sunulan; Türk dili, edebiyatı ve kültürü alanlarındaki 88 bildiri yer almaktadır. Bildirilerin ortaya koyduğu sonuçlar bu alanda çalışan bilim insanlarının dikkatine sunulma maksadıyla bir kitapta toplanmıştır. Bildiri kitabının; Türk dünyasının dil, edebiyat ve kültür alanında çalışan genç Türkologlara fayda sağlayacağı düşünülmektedir.

UDK 001
BBK 72

ISBN 978-601-7999-54-4

© Uluslararası Türk Akademisi, 2021

ADABIYOT DARSLARIDA KOGNITIV VA KREATIV YONDASHUVLAR SAMARADORLIGI

Saodat KAMBAROVA

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
O'zbekiston
saodat7373@mail.ru

Annotatsiya

Maqola adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarning asarda aks etgan hayotiy hodisalar mohiyatini anglash, badiiy matnning emotsional idrok etish, obrazli va analitik fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda kognitiv va kreativ metodlarni qo'llashning samarali jihatlari haqida ishlanadi.

Kalit so'zlar: *Kognitiv metod, kreativ metod, empatiya, ilmiy faraz, gipoteza, sxema, ramziy ko'rish, obyekt, agglyutinatsiya.*

Jahon amaliyotida jamiyat taraqqiyoti va barkamol shaxs kamoloti omillaridan biri sifatida kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga alohida ahamiyat qaratish tendensiyasi kuzatiladi. Dunyoning yetakchi davlatlarida ta'lim tizimiga "reader response" (kitobxon javobi), "student – centered" (o'quvchi faol) kabi yondashuvlar joriy etilib, badiiy asarning yaxlit adabiy-estetik hodisa sifatidagi ma'no xosliklarini kashf qilish, o'quvchi faolligini oshirish, kreativlik, mantiqiy hamda tanqidiy mushohada yuritish kabi mutolaa san'atini egallashga doir strategiyalar ishlab chiqilmoqda.

Bugungi kunda adabiy ta'lim jarayonida pragmatizm, retseptiv (lotincha qabul qilmoq) estetika va uning zamiridagi tranzaksiya (lotincha uzatish) nazariyalari (kitobxon va asar dialogi)ni tatbiq etish orqali o'quvchilarning asarda tasvirlangan voqelik mohiyatini real hayotiy asoslari bilan qiyoslash, matn mazmunini emotsional idrok etish, obrazli va analitik fikrlash malakalarini shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Badiiy asarning yaxlit adabiy-estetik hodisa sifatidagi ma'no xosliklarini kashf qilish, o'quvchilar faolligini oshirish, ijodiy, mantiqiy hamda tanqidiy mushohada yuritish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishda kognitiv va kreativ metodlar samaradorligi e'tirof etilmoqda.

Istiqloq davri pedagogikasida bilish jarayonlarini rivojlantirish orqali yosh avlodni ijodkorlikka yo'naltirish, mustaqil o'qib-o'rganish, nazariyani amaliyotga tatbiq etish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ham kognitiv, ham kreativ jarayon bilan yaqin aloqadorligiga ko'ra ta'limning izlanish metodi bu borada yaxshi samara beradi. Izlanish (evristik) metodi o'quvchilarda faollik, izlanuvchanlik sifatlarini shakllantirishga, muammo va uning yechimiga oid eng muhim hamda muqobil variantlarini topishga yo'naltiruvchi savollar orqali bilish jarayonlarini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim berish tizimidir.

Kognitiv (“bilmoq, anglamoq, tushunmoq”) metodlar ta’lim oluvchilarda butun olam haqidagi mavjud bilim va tushunchalarni yanada orttirish, shuningdek, masalani tarkibiy qismlarga ajratib tadqiq qilish ko’nikma va malakalarini shakllantirishga qaratiladi. Kognitiv o’qitish asosida shaxsni biologik, psixologik va ijtimoiy tashkillashtirishning dinamik tizimi yotadi. Uning “strategiya va aqliy qobiliyatlarning butun majmuini rivojlantirib, o’qitish jarayoni va individning yangi sharoitlarga o’rganish jarayoniga imkoniyat yaratishi” (<https://www.mirznanii.com/a/179562/kognitivnye-metody-obucheniya>)ni qayd etmoq o’rinlidir.

So’nggi paytlarda jahon falsafasi va tilshunoslik sohasida keng ommalashgan ushbu ta’lim metodlari negizida o’quvchilarning ongi, ruhiyati va bilish jarayonlari rivojiga ijobiy ta’sir ko’rsatish masalalari nazarda tutiladi. Zamirida ta’limiy mahsulot yaratishga erishish va, asosan, obyektни bilish maqsadi ustuvor kognitiv metodlar natijasi o’qituvchining o’quvchi bilan do’stona munosabat o’rnatishida, darsda qulay pedagogik va psixologik muhit yarata olishida namoyon bo’ladi. Ta’kidlash o’rinliki, *empatiya, mohiyatni ko’ra olish, obrazli ko’rish, ramziy ko’rish, evristik savollar, taqqoslash, evristik kuzatish, tadqiqot, tushunchalarni yig’ish va ilmiy faraz (gipoteza)* kabi qator metodlar kognitivlik xususiyatiga ega.

Empatiya metodi. Bunda o’quvchining hissiy-obrazli va fikriy tasavvuri orqali o’rganilayotgan shaxs, narsa-buyum yoki voqelik “ichiga kirib”, uni his qilish, bilishga intilishi nazarda tutiladi. Psixologiyada empatiya (hamdardlik, ichdan his qilishlik) deyilganda konkret shaxsni boshqa odamlarning emotsional-hissiy holatlarini mazkur davrda anglash (tushunish), ularning ichki va tashqi kechinmalari va tashqi holati (favqulodda vaziyatni) shaxs an o’zida aks ettirish qobiliyati (uquvchanligi), aynan shu voqelikni o’zida sinab ko’rish tushunilishi qayd etiladi (Sadikova, 2001: 8).

Adabiyot darslari inson kechinmalari va his-tuyg’ularini turli rakurslarda tadqiq etish nuqtayi nazaridan ham hayotiydir. Shu bois, ta’limiy obyektlar ichiga kirib borish jarayonida o’quvchi his qilish darajasida fikrlashga harakat qiladi. Buning samarasi o’laroq ong va tasavvurda muayyan qahramonning omuxtalashgan tashqi va ichki portreti, emotsional-bo’yoqdor hayotiy manzaralar tasviri paydo bo’ladi, turli fanlar doirasidagi bilimlar sarhisob qilinadi, qiyoslanib, umumlashtiriladi hamda voqelikning tub mohiyati idrok qilinadi. “Asarda tasvirlangan voqelik bilan hayot voqeligini farqlash jonli muloqot natijasidir. Kitobxon ularni taqqoslash uchun bosh qotiradi – o’ylashga majbur bo’ladi. Shu jarayonda asar voqeligini xayolida qayta jonlantiradi, qahramonlarning o’rniga o’zini qo’yib ko’radi, muayyan xulosalar chiqaradi. Ko’rinadiki, u ham o’ziga xos ijod qiladi” (Matchanov, 1998: 84).

Umumiy o’rta ta’lim maktablari 7-sinfida Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostoni “Salotin” bobidagi “Shoh G’oziy haqida hikoyat”ini empatiya metodiga tayanib mustaqil o’qib-o’rganishda o’quvchilarga quyidagicha murojaat qilish mumkin:

“Tasavvur qiling, siz asar voqealari sodir bo‘lgan zamon va makonga tushib qoldingiz. O‘zingizni shoh G‘oziy qiyofasida ko‘ring. Kampir sizdan o‘g‘lining xunini talab qilmoqda. Kampirning da‘vosiga nisbatan qanday chora ko‘rasiz? Uni jazolaysizmi yoki hukmdordek yo‘l tutasizmi? Jabrlanuvchi adolat talab qilgandagi holatingizni so‘z bilan ifodalang”.

Empatiya metodi asar qahramonlari obraziga “xayolan kirib olish” orqali ularning ichki kechinmalari, nozik jihatlarini ilg‘ash, obrazlar zamiriga inson shaxsiga xos his-tuyg‘ular, kechinmalar singdirilganini bilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Qahramonlar obraziga xayolan “kirib olish” obyekt xususiyatlarini ichdan o‘rganish, tuyg‘u va kechinmalarini anglash jarayonini uyg‘unlashtiradi. Ta‘limiy obyektlar ichiga kirish holatidagi his-tuyg‘ular (ishonch, quvonch, qoniqish, ikkilanish, qo‘rquv, nafrat, g‘azab), fikr-mulohazalar o‘quvchining istiqbolda namoyon bo‘ladigan intellektual faoliyati mahsulidir. Personajlar o‘rtasidagi suhbat, tortishuv, bahs-munozaralarni aks ettirish orqali o‘quvchilarda dialoglarni monologik, polifonik nutqqa, matndagi ko‘chirmalarni o‘zlashtirma gaplarga aylantirish malakalari ham shakllantiriladi.

Empatiya metodini qo‘llashning ahamiyati o‘quvchida personajlar qiyofasiga kirish orqali obyekt muammolarini tushunish, kechinmalarini his qilish va jarayonni belgili, harakatli yoki rasmi tarzda tasvirlash ko‘nikma va malakalari shakllanishi; mavjud imkoniyatlar yuzaga chiqishi; obyekt ichiga kirish holatida o‘quvchi o‘zini kuzatish va baholash imkoniga ega bo‘lishida namoyon bo‘ladi. Masalan, 6-sinfda X.To‘xtaboyevning “Sariq devni minib” asarini o‘rganishda sehrli qalpoqchasini kiyib Soraxon folbinnikiga taftish uyushtirgan Hoshimjonning yerto‘lada sinfdoshi Mirobiddinxo‘ja nayranglariga guvohi bo‘lishidagi ruhiy o‘zgarishlarni ifodalash misolida empatiya metodining o‘ziga xos jihatlari yaqqol namoyon bo‘ladi.

Mohiyatni ko‘ra olish metodi. Bu metod empatiya metodining ancha chuqurlashtirilgan va mukammallashtirilgan variantidir. Mazkur metod o‘quvchida muayyan kayfiyat hosil qilishni talab etadi. Mohiyatni ko‘ra olish metodi quyidagicha savol-topshiriqlar qo‘yishni talab etadi:

a) biror adabiy qahramonning erishgan yutuqlari, taqdiridagi ayanchli voqealar yoki personajlar o‘rtasidagi o‘zaro ziddiyatlar, muammoli vaziyatlarni topishni;

b) ularning yuzaga kelish sabablarini tahlil qilishni;

c) voqealar nima uchun shunday yakunlanganligini, boshqacha yo‘l tutilganda qanday bo‘lishi mumkinligini va h.k.

Fanda ilmiy gipoteza ilmiy dalillarga tayanishi yaxshi ma‘lum. Shu nuqtayi nazardan olganda ilmiy faraz haqiqatligi isbotlanishi talab etiladigan bilimdir. Ilmiy faraz (gipoteza) olamdagi aniq narsa, hodisa va jarayonlarning mohiyati, qonuniyatlarini yoritish masalasi ustuvor bo‘lgan metoddir. Har qanday fan empirik materiallar tahliliga tayanadi va ularni anglashdan boshlanadi. Bu esa,

o'z navbatida, ichki mohiyat, o'zaro bog'liqlik va munosabatlarning in'ikosi bo'lmish yangi g'oyalar ijod qilinishiga zamin yaratadi.

Adabiyot darslarida ilmiy faraz (gipoteza) metodini qo'llashning afzalliklari shundaki, bunda o'rganilayotgan mavzu doirasida savol-topshiriqlar yoki muammoli vaziyatlarning bir qator variantlari yaratilishi ko'zda tutilib, g'oyalarning asoslari aniqlanadi, muhokama qilinib, mantiqan mukammal hisoblangan fikr-mulohazalar tanlab olinadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfida Nazar Eshonqulning "Shamolni tutib bo'lmaydi" yoki jahon adabiyotidan Paulo Koeloning "Alkimyogar" asarlarini mustaqil o'qib-o'rganishda "Agar Bayna momo nafrat va qasos hislarini yengishga o'zida kuch topa bilganida edi...", "Agar momo hayotini yangidan boshlashga urinib ko'rganida edi...", "Agar momo yangi avlodning samimiy munosabatini qabul qilganida edi..." yoxud "Agar Santyago tushiga ishonmasdan qo'ylarini boqib yuraverganida edi...", "Agar Santyago qo'rqqoqlik qilib sahroyilarga ichki imkoniyatlarini ko'rsata olmaganida edi..." tarzidagi voqelik zamiriga chuqur yo'naltiruvchi savol-topshiriqlar tizimi taqdim etilishi asosida ta'lim oluvchilarning metod doirasidagi faoliyatlari belgilanadi. Natijalar esa mantiq va idrokka asoslangan javob variantlari shakllantirilishi bilan xulosalanadi.

"Ramziy ko'rish" metodi. Mazkur metod obyekt va uning ramzi o'rtasidagi aloqadorlikni aniqlash va yaratishga yo'naltiradi. "Ramz – bu o'zida mohiyatni mazmun etgan voqelikning chuqur obrazidir va u shu voqelikni bilish va kuzatish vositasida namoyon bo'lishi mumkin (Tursunov, 2013: 27).

Har qanday nazariya unga asos bo'ladigan ilmiy dalil va qonunlar bilan mavjuddir. "Kognitiv nazariyada "sxema" tushunchasi qabul qilingan bo'lib, bu tushuncha inson xotirasida mavjud bo'lgan ma'lumotlar va xotiralar yig'indisini bildiradi. Inson miyasi yangi ma'lumotni qabul qilayotganda o'zida mavjud sxema bilan solishtiradi va bu sxemaga mos tushadigan ma'lumot yaxshiroq va osonroq o'zlashtiriladi" (Jalilov, 2016: 235).

Bu borada o'quvchilarga ramzlarni matnga bog'liq holda talqin qilish, ular o'rtasidagi g'oyaviy mushtaraklikni so'z, turli belgilar yoki grafik shakllarda tasvirlashga doir topshiriqlar berish mumkin. Masalan, umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfida "Hayrat ul-abror", 6-sinfida "Mahbub ul-quub" asarlaridan berilgan boblarni o'rganishda o'quvchilarga mazkur asarlarda ulug'langan fazilatlar yoki qoralangan odatlarni matn bilan bog'liqlikda tasavvur qilishlari va ularni turli belgilar yoki shakllar ko'rinishida chizishga doir topshiriqlar berish mumkin. Xususan, "Saxiy bulutdir, xirmon-xirmon don hosili, balki xazina beradi; baxil chumolidir, don-dun, mashoq teradi. Oliyhimmat odam – balandparvoz lochindir, behimmat – sichqon ovlovchi kalxatdir" (Ahmedov, 2017: 38) kabi ta'riflar misolida muayyan obyekt xususiyatlari o'rganilib, kuzatishlar asosida uning ramziy ma'nolarini aks ettirish taklifini kiritish mumkin.

Yuqori sinflarda Alisher Navoiyning “Xamsa” dostonini o‘rganishda ramziy ko‘rish metodidan foydalanish o‘quvchilar tasavvuri va dunyoqarashini uyg‘un holda rivojlantirishga keng yo‘l ochadi. Masalan, Junaning yashindan ham tez harakatlanadigan “Sari us-sayr” ulovi, Iskandar olimlari kashf etgan sirli qurollar yoki Xitoy xoqoni Iskandarga tuhfa etgan “Oinai Chin” ko‘zgu tasvirini grafik ko‘rinishlarda ifodalash vazifalarini berish orqali mavjud namunalarga nimasi bilandir o‘xshab ketadigan obraz, matn yoki vaziyatning shakli va mazmuni idrok qilinishiga turtki beriladi. Xususan, “Sab‘ai sayyor” dostonidagi ikkinchi iqlim yo‘lidan keltirilgan musofir hikoyati”dagi Zayd Zahhob yasagan taxt zamonaviy eskalator yoki liftning Navoiy orzusidagi ko‘rinishi ekanligiga o‘quvchida tasavvur hosil qilinadi.

Demak, kognitiv metodlar ta‘lim oluvchilarning borliqni turli ramzlar orqali fikran tasavvur qilish, obyekt timsolini xayolan yaratish, voqea-hodisalar, narsa-buyumlar o‘rtasidagi sabab-natijalar mohiyatini idrok qilish ko‘nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Kreativ metodlar. Tadqiqot xarakteridagi kreativ metodlar tarbiyalanuvchilarda maqsadga qaratilgan ijodiy tafakkurni qaror toptirib, shaxsiy ta‘lim mahsuli yaratish bilan natijalanadi. U o‘z tarkibiga “O‘ylab topish”, “Agarda...”, “Obrazli tasvir”, “Giperbolizatsiya”, “Tasodifiy assotsiatsiyalar”, “Agglyutinatsiya”, “Aqliy hujum”, “Sinektika”, “Morfologik quti”, “Inversiya yoki murojaat qilish” kabi metodlarni qamrab oladi.

“O‘ylab topish” metodi avvaldan ma‘lum bo‘lmagan aqliy faoliyat natijalari mahsulini yaratish maqsadini nazarda tutadi. Bunda:

a) muayyan bir obyektning qaysidir sifatini boshqasiga ko‘chirish orqali yangi obyekt yoki unga xos qandaydir xususiyatlar kashf qilinadi;

b) ‘zga sharoitda obyektga xos ma‘lum jihatlar izlab topiladi;

c) tadqiq qilinayotgan obyekt elementlari aniqlanib, o‘zgartirishlar kiritiladi.

“O‘ylab topish” metodi vositasida o‘quvchilarga muayyan bir obraz xarakterida mujassam xususiyatlarni fikran boshqasiga o‘tkazish taklifini kiritish mumkin. Mazkur jarayonda o‘quvchilar aynan qaysidir qahramonni tamomila boshqa qiyofada ko‘rishi va xayolan o‘zlari inkishof etgan evrilishlarni yuzaga chiqarish imkoniga ega bo‘ladilar. Jumladan, taniqli adib Muhammad Alining “Ulug‘ saltanat” tetralogiyasi personajlari Amir Kayxusrav, Mahmudshoh Buxoriy, Abu Is‘hoq Yasovuriy, Odilshoh jaloyir kabi xudbin amirlar Amir Temurning kechirimlilik, bag‘rikenglik, olijanoblik bobidagi xatti-harakatlari ta‘sirida o‘zlarini jaholatdan asray bilgan kishilar obrazlari sifatida gavdalanishi nazarda tutiladi. Zero, o‘quvchilar Sohibqiron Amir Temurning kechirimlilik, kengfe‘lliligi vaqti kelib Amir Muso, Shayx Nuriddin kabi beqaror, ikkiyuzlamachi mulozimlarining xatolarini anglab yetib, uning xizmatiga astoydil bel bog‘lashga undashini, shuningdek, sarkardaning o‘ziga oshkora suiqasd uyushtirishgacha borgan Shibirg‘on hokimi Zindachashm opardiyga o‘lim jazosi emas, eng so‘nggi hukm sifatida ko‘zidan yo‘qotishlarini so‘rashi

Amir Temurning bag'rikengligi, muruvvatliligidan dalolat berishini mazkur metod imkoniyatlari doirasida tushunib yetishlarini ham ta'kidlash mumkin (Kambarova, 2020: 450).

Agglyutinatsiya metodi shakl va mohiyatan qarama-qarshi narsa-buyumlar, hodisalarni yaxlit bir butunlikda ko'ra olishga yo'naltiriladi. Evristik ta'lim metodlari ustida izlanishlar olib borgan tadqiqotchi J. Tursunovning fikricha, ushbu metod ta'lim oluvchilarga ayrim narsa va predmetlarni haqiqiy voqelikda o'zaro muvofiq kelmaydigan belgi, sifat, xususiyat yoki qismlarga tayanib birlashtirishga qulay sharoit yaratadi. Bunga issiq qor, chuqurlik cho'qqisi, yugurayotgan daraxt, shirin tuz, qora yorug'lik, uchayotgan ayiq kabi obyektlar misol qilib olinadi (Tursunov, 2013: 28).

Uzluksiz adabiy ta'lim jarayonida: "Ushbu metoddan qaysi mavzular doirasida foydalanish mumkin?" degan savol tug'ilishi tabiiy. Bunda obyektning ichki va tashqi xususiyatlariga zid jihatlar tanlab olinib, masalaning asl mohiyatini teran anglash muammosi hal qilinadi. Masalan, "Qorajon – xiyonatkor va bemehrini" ("Alpomish" dostoni), "Bo'ri polvon – xudbin va andishasiz do'st" (Tog'ay Murod. "Yulduzlar mangu yonadi"), "Muhsin guppi – halol, xalqparvar boy" (Zohir A'lam. "Afandining qirq bir pashshasi"), "Tursunboy – mehribon va g'amxo'r o'g'il" (Said Ahmad. "Ufq"), Durroj – to'g'riso'zlik timsoli ("Sher va Durroj") va hokazo. O'quvchilarga bunday mazmundagi savollarni taqdim etish asnosida ularda tanqidiy tafakkurni, chuqur mushohada yuritish ko'nikmasini, yon-atrofidagi voqea-hodisalaga nisbatan e'tibor bilan yondashish tuyg'ulari tarkib toptiriladi.

Xulosa qilganda, kognitiv va kreativ metodlar zamirida nazariy xulosalarni real shaklga keltirish, o'quvchining yangi bilimlarni o'zlashtirishi natijasida o'zi kashf qilish faoliyatiga yo'l ochish, bilim borliqdan ko'chirilgan nusxa emas, balki inson tafakkuri mahsuli ekanligini o'quvchilarga anglatish faoliyatiga e'tibor qaratish mavjudligini ta'kidlash mumkin. O'quvchilarning izlanish faoliyatini yo'lga qo'yish orqali ularning olamni, insonni anglashga nisbatan faol munosabatlari shakllantiriladi, yangi bilimlarni mavjud intellektual imkoniyatlari darjasida o'zlashtirishga shart-sharoit yaratiladi. Eng muhimi, ilmiy bilimlarni shakllantirish va rivojlantirish imkoniyati ortadi.

ADABIYOTLAR:

1. Ahmedov, S. va boshq. (2017). Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik-majmua. II qism. – Toshkent: Ma'naviyat. – 176 b.
2. Jalilov, K. (2017). Navoiy asarlarini tushunishga tayyorlash strategiyalari / Alisher Navoiy va XXI asr. Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari. – Toshkent. – B. 235.
3. Kambarova, S. (2020). Harmony in imagery of literature and reality of life Harmony in imagery of literature and reality of life // EPRA JOURNALS. International Journal of Research and Development (IJRD). Volume: 5 | Issue: 3 | March Peer Reviewed Journal. – B. 447–451.

4. Matchanov, S. (1998). Umumta'lim tizimida adabiyotdan mustaqil ishlarni tashkil etish: Ped. fan. dok. ... diss. – Toshkent. – 308 b.
5. Sadikova, R. (2001). Empatiya adaptatsiya hodisasining muhim omili sifatida // Maktab va hayot. – Toshkent. – № 2. – B. 8.
6. Tursunov, J. (2013). O'quvchilarda kreativ qobiliyatlarni shakllantirishda evristik ta'lim metodlaridan foydalanish // Maktab va hayot. – Toshkent. – № 3. – B. 27.
7. Tursunov, J. (2013). O'quvchilarda kreativ qobiliyatlarni shakllantirishda evristik ta'lim metodlaridan foydalanish // Maktab va hayot. – Toshkent. – № 3. – B. 28.
8. https://www.mirznanii.com/a/179562/kognitivnye-metody-obucheniya_

“КУТ БИЛИМ”, “ДЕ ФАКТО”, “ФАКТЫ” ГЕЗИТТЕРИНИН МИСАЛЫНДА	259
Айганыш МУКАНОВА	
“АКСАНАТАЙ ХАНЗААДА ЖАНА КАРАСАНАТАЙ ХАНЗААДА” АҢГЕМЕСИНДЕГИ КОШ СӨЗДӨР.....	267

**ЎЗБЕК ТИЛИ
O‘ZBEK TILI**

Hilola ABDURAIMOVA	
“QISASI RABG‘UZIY” ASARIDA QO‘LLANILGAN KO‘P MA‘NOLI SO‘ZLARNING ESKI TURKIY TIL VA BUGUNGI O‘ZBEK ADABIY TILIGA MUNOSABATI	272
Shahnoza ALIMOVA	
XORAZM QIPCHOQ SHEVALARI LEKSIKASINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	282
Ғулом БОБОЖОНОВ	
БАЛОҒАТ ИЛМИДА СЎЗ ФАСОҲАТИГА ОИД АСОСИЙ ҚОИДАЛАР	290
Zilola BOLTAYEVA	
“DEVONI LUG‘ATIT TURK” DA XALQ OG‘ZAKI IJODI NAMUNALARI	299
Muazzam DEDAXANOVA	
“ALVOHI INTIBOH” ASARI TARJIMASINING LEKSIK XUSUSIYATI.....	301
Abdumannon HASANOV	
XX ASR BOSHLARIDA O‘ZBEK TILI LEKSIKASINING BARQARORLASHUVIDA TURKIY TILLAR VA SHEVALARNING TA‘SIRI	307
Шахло ҲАМРОЕВА, Шахноза ГУЛЯМОВА	
ТУРКИЙ ТИЛЛИ КОРПУС ТУЗИШ ТАЖРИБАСИДАН.....	313
Элмира ҲАЗРАТҚУЛОВА	
«БОБУРНОМА» ВА «ТАРИХИ РАШИДИЙ» ДА НАВОИЙ ИЖОДИЙ ПОРТРЕТИ	319
Fayzulla ISKANDAROV	
TURKIY TILDAGI ILK NA‘T POETIKASI.....	329
Saodat ISRAILOVA	
NAVOIY IJODIDA RANG BILDIRUVCHI LEKSEMALARINING SEMANTIK TALQINI	337
Nilufar KADIROVA	
BADIIY ASARNI O‘RGANISHDA SAVOL VA TOPSHIRIQLARNING O‘RNI	342
Saodat KAMBAROVA	
ADABIYOT DARSLARIDA KOGNITIV VA KREATIV YONDASHUVLAR SAMARADORLIGI	349